

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 12/2 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаси хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Диљдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

Тайланова Шохида Зайниневна - педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАСИНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Nematova Maftuna</i>	
ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН .....	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i>	
MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKТИК TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i>	
"SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i>	
BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI .....	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i>	
IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI .....	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i>	
ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i>	
XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI .....	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i>	
FRANSUZ KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i>	
ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА .....	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i>	
J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI .....	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i>	
OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI .....	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i>	
ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК .....	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i>	
PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI .....	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i>	
BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI .....	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i>	
SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i>	
GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING .....	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i>	
ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY .....	115-119
<i>Tўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i>	
ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕХР .....	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Mamayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i>	
INGLIZ REKLAMA SHIIDLARI TARJIMASI JARAYONIDA	
SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI .....	125-129
<i>Abdumannonov Xojsiakbar Akmaljon ugli</i>	
ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка) .....	130-136
<i>Abdullaeva Raъno Xikmatovna</i>	
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА .....	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i>	
ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI .....	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i>	
EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE .....	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i>	
WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH .....	163-169
<i>Xojiyeva Oynisa Shabonovna</i>	
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI .....	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i>	
COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES .....	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i>	
ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI .....	183-190
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich</i>	
OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI .....	191-196
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Кутыбаева Елизавета Дүйсенбаевна, Аманиязова Света Байнязовна</i>	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	197-203
<i>Mirzaabdullaeva Matluba Rustamovna</i>	
СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕМЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriiddinovich</i>	
BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI .....	210-216

<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i>	
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI .....	217-223
<b>13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna</i>	
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI .....	224-228
<i>Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li</i>	
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH METODIKASI .....	229-233
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	234-239
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI .....	240-244
<i>Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI .....	245-258
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i>	
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR TUSHUNCHASI .....	259-265
<i>Valieva Xolida</i>	
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLDI .....	266-271
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	272-277
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i>	
TA'LIM-ISSLAB CHIQARISH INTEGRATSİYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	278-285
<i>Mamaraimova Zebo Shafoatovna</i>	
YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI .....	286-290
<i>Turayev Yolqin Sherzod o'g'li</i>	
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....	291-295
<i>Abdurashulova Shoira Kushakovna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....	296-305
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QTISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI SIFATIDA .....	306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i>	
VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI .....	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i>	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI .....	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i>	
BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI .....	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i>	
TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdulkulovich</i>	
OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH .....	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i>	
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH .....	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	361-371
<i>Касимов Ойбек Омилович</i>	
СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОИДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i>	
MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY- METODOLOGIK JIHATLARI .....	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ .....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i>	
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI .....	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i>	
ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES .....	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i>	
MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i>	
AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI .....	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i>	
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i>	
JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI .....	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i>	
BO'LAJAK BOShLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI .....	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i>	
MOLEKULYAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH .....	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH .....	458-463

**Jumayev Sirojiddin Zafarovich**  
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchi

**MOLEKULYAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA  
AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN  
FOYDALANISH**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Molekulyar biologiyadan mashqlar bajarishning talabalarda o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari, hamda metodikasi yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** motiv, o'quv harakati, mashq, bilim, malaka, ko'nikma, mashq bajarish, ma'lumot, fikrlash, bilim egallash.

**Jumaev Sirojiddin Zafarovich**  
teacher of TDPU named after Nizami

**USE OF PROBLEMS AND EXERCISES IN TEACHING THE TOPIC OF AMINO ACID  
COMPOSITION OF PROTEINS AND CLASSIFICATION OF AMINO ACIDS FROM MOLECULAR  
BIOLOGY**

**Annotation.** In this article, the pedagogical principles and methodology of the organization of educational activities for students of molecular biology exercises are explained.

**Key words:** motive, educational action, exercise, knowledge, competence, skill, exercise, information, thinking, knowledge acquisition.

**Джумаев Сирожиддин Зафарович**  
преподаватель ТДПУ им. Низами

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАДАЧ И УПРАЖНЕНИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ  
АМИНОКИСЛОТНЫЙ СОСТАВ БЕЛКОВ И КЛАССИФИКАЦИЯ АМИНОКИСЛОТ ИЗ  
МОЛЕКУЛЯРНОЙ БИОЛОГИИ**

**Аннотация.** В данной статье изложены педагогические принципы и методика организации учебной деятельности студентов по упражнениям по молекулярной биологии.

**Ключевые слова:** мотив, учебное действие, упражнение, знание, компетентность, умение, упражнение, информация, мышление, приобретение знаний.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N68>

**Kirish.** Ma'lumki Molekulyar biologiyani auditoriya mashg'ulotlarida o'rganish fanga oid bilish faoliyatida talabalarning o'quv harakatlarini vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Talabalarda tashqi va perceptiv o'quv harakatlar Molekulyar biologiyani auditoriyada va auditoriyadan tashqari tashkil qilinadigan o'quv mashg'ulotlarida vujudga keltiriladi. Mashg'ulot davomida talabalarning perceptiv harakatlari professor o'qituvchining ma'rurasini tinglashi, ma'ruzada bayon etilgan ma'lumotlar asosida fikr yuritishi, professor o'qituvchining

mashg'ulot davomidagi harakatlarini kuzatishi va professor o'qituvchining vujudga keltirgan muammoli vaziyatlarni hal qilishi kabi o'quv harakatlarida amalga oshiriladi.

Tashqi o'quv harakatlari esa talabalarning auditoriyadan tashqari o'quv bilish faoliyatini tashkil etishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Talabalarning bilish faoliyatini individual tarzda tashkil etish topshiriqlarni bajarish asosida bilim, ko'nikma va malakalarni uzviy va izchil tarzda bosqichma bosqich shakllantirish imkoniyati vujudga keladi. Talabalarning bilish faoliyatini individual tarzda tashkil etilganda talabalar o'quv materialini o'quv mashqlarini bajarish davomida yozish, tajribalar o'tkazish, masalalar ishslash asosida mustaqil o'zlashtiradilar. Talabalarning mustaqil bilim olishini tashkil etishda talabalarning individual xususiyatlarini qiziqishi, ehtiyoji, iqtidori, bilimlarni o'zlashtirish darajasini hisobga olinadi. Talabalarning individual xususiyatlarini xisobga olgan holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishi orqali talaba o'z bilish faoliyatining subektiga aylanadi.

**Tahlil va natijalar.** Talabalarning bilim olish faoliyati o'zining tuzilishiga, rivojlanishiga hamda faoliyat qonuniyatlariga ega. Talabalarning bilim olishida borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida shakllanib boradi. Bilim olish talabalarda xulq-atvorning o'zgarishiga, fan bo'yicha ko'nikma, malakalarining shakllanishiga, egallangan bilimlarni boyitishning aosiy manbayi bo'lib xizmat qiladigan jarayon hisoblanadi. Bilim olishning asosiy komponentlarining biri bu—motiv. Motivning vujudga keltirilishi ta'lif jarayonini tashkil etishdagi talabalarni bilim olishga nisbatan ehtiyojning yuzaga chiqishidir.

Motiv — inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchadir. Ta'lif jarayonida o'qish motivlari «nima uchun?» «nimaga?», «qanday maqsad bilan?» kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar birinchidan, o'quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. O'quv faoliyatida o'quv motivlari o'rganuvchilar tomonidan tanlanib, ular o'rganuvchining maqsadi, qiziqishi, kelajak rejalarini bilan bevosita bog'liq bo'ladi.[1]

Molekulyar biologiyani o'rganishda fan tarkibidagi ma'lumotlarning xil ekanligi talabalarda motivlar asosida o'rganishning samarali usulini qidirishga undaydi. Molekulyar biologiyani o'rganishda talabalarning o'quv maqsadi harakatlarini amalga oshirishga undovchi motiv vazifasini bajaradi.

O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko'rinishda bo'lishi mumkin. Tashqi o'quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); perceptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi. [1]

Talabalar bilim olishda bilish faoliyatini tashkil etishni o'rganishlari uchun bilimlarni o'rganish jarayoning tuzilishi haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lishi, talabalarning bilim egallash bosqichlarini bilishlari muhim hisoblanadi. Talabalarning bilim olish bosqichlari idrok etish, o'quv materialini anglab yetish, mustahkamlash, amaliy faoliyatida bilimlarini qo'llash bilan namoyon bo'ladi.

Birinchi bosqich idrok etish hisoblanadi. Psixologiyadan ma'lumki, idrok etish aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni bo'lib, u tanlash xususiyatiga ega. Shuning uchun birinchi navbatda talabalarga mavzuni, ya'ni, ularning nimani o'rganishlari tushuntirib berish kerak. Shu asosida o'quv materiali bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi. U haqiqiy mavjud yoki hayoliy predmet, hodisa, vaziyatlarni kuzatish, mumkin bo'lgan tajribalarni o'tkazishdan

iborat bo'ladi. Birinchi bosqich talaba qaysi hodisa va voqealarni, predmetlarni o'rganish haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lganida va o'quv masalasini tushunib yetganda yakunlanadi.

Ikkinci bosqich — o'quv materialini anglab yetish. Ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va analiz qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmunni topish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialining xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to'plamini o'rganib chiqish kerak. Bu vaziyatda bilimlar o'rtasidagi tizimlilik muhim ahamiyatga ega. Unda talaba eng asosiy, ikkinchi daraiali hamda qo'shimcha, tushuntiruvchi elementlarni ajratib ko'rsatsin. Talaba o'quv masalasini yechish usulini tushunsa, bilimlar o'rtasidagi tizimni anglab yetsa ushbu bosqich yakunlangan sanaladi.

Uchinchи bosqich — eslab qolish va mustahkamlash. Bu bosqich o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko'proq mashqlar, mustaqil reproduktiv va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo'ladi. Nazariy material, tushuncha, qoida, isbotlar turli xil mashqlarda takrorlanadi. Bosqich yakunida o'quvchilar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni bajarish, masalani yechishda foydalanishni biladilar. Ularda o'quv malakalari va ko'nikmalari shakllantirilgan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich bilim. ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llashdan iborat bo'ladi. Bilimlarini qo'llash o'rganilayotgan materialning mazmuni xususiyatiga qarab, faoliyat turli shakllari va ko'rinishlarida amalga oshirilishi mumkin. Bu o'quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari, mакtab yer maydonidagi ishlar bo'lishi mumkin. [2]

Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga ko'ra, bilim o'zlashtirish jarayoni talabaning o'quv-biluv faoliyati sifatida qaraladi, aqliy harakatlar (amallar) shaklida ijro etiladi, u har bir mashqda (o'quv vazifasini bajarishda) bitta yoki bir nechta aqliy amallardan iborat bo'lib, ma'lum izchillikda bajariladi. [3]

Mashq — aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, grafikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi.

Yozma mashqlar — ta'limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi. Mashqlarning bajarilish samarasи quyidagi shartlar hisobga olinganda birmuncha yuqori bo'ladi:

- mashqlarni bajarishga nisbatan ongli yondashish;
- bajarish qoidasini bilish;
- vaqt bo'yicha takrorlanishning to'g'ri taqsimlanishi. Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat:
  - o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
  - topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi;
  - o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi;
  - zarur ko'nikma va malakalar shakllangunicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.

Ayrim holatlarda o'quvchilar ovoz chiqarib o'quv harakatlarini takrorlashlari va bajarishlari lozim bo'ladi. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko'nikma va malakalarni egallahsga imkon beradi.[2]

Masala va mashqlar tushunchalarni o'rganishda ahamiyatga ega bo'lib talabalarni o'zlarini mustaqil ishslash asosida bilimlarni o'zlashtirishiga, masalada berilgan ma'lumotni tahlil qilishiga sabab bo'ladi. Masala ishslash jarayonida talabalar o'quv bilish jarayonining faol va interaktiv ishtirokchisiga aylanadi.

Masala tarkibida muammoli vaziyat mavjud bo'lib, hal qilinishi kerak bo'lgan muammoli vaziyatlar mavjud bo'ladi. Masala ishlanishi jarayonida muammoning hal qilinishi yoki hal qilinganini aniqlash kerak bo'ladi. Mazkur jarayonda masalaning yechimini topishga harakat qilayotgan talabadan avvaldan o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llashni ta'lab qiladi.

Masalalar yechimini topishda talabalarning tahlil qilish, fikrlash, va yechim topish bo'yicha samarali o'quv usullarini amalda qo'llanishiga sabab bo'ladi. Talabalar, masalalar ishslash orqali, o'rganilgan materialni tushunish va amaliyotda qo'llash orqali o'zlarini o'rgangan bilimlaridan malaka va ko'nikmalarni shakllantirishadi. Bu jarayon, talabalar uchun o'rganilgan materialni tahlil qilish, muammolarni hal qilish, va fikrlarni ifodalashda kreativlikni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Masala ishslashning bilim ko'nikma malakasini shakllantirishdagi quyidagicha ahamiyatga ega bo'ladi:

Masaladagi mavjud muammolarni tahlil qilish tafakkur ko'nikmalari rivojlantirishda uchun usul xisoblanadi. Talabalar masala yechish orqali o'rganilgan materialni takrorlash va amalda qo'llash orqali o'zlarining tafakkurini rivojlantiradi, mavjud muammoning yechimini topishda kreativ fikrlashga o'rgatadi.

Masala ishslash, talabalarga o'rganilgan materialni mustaqil o'zlashtirish, mavjud muammoli vaziyatni hal qilish va boshqa bilimlar bilan integratsiyalar hosil qilish uchun asos bo'ladi. Bu jarayon, bilim olishda talabalarning mustaqil bilim olishiga sabab bo'ladi.

Kreativ fikrlash masalalar yechish bo'yicha malaka shakllantirish uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Kreativ fikrlash masalalarga yangi yechimlar topish, yangi fikrlarni vujudga keltirish va masalalarni kreativ hal qilish orqali bilim olishadi. Masalalar, fikrlash va yechim izlash uchun talabalarda qiziqish oshirishda foydalilanadi. Masala ishslash talabalarga boshqa talabalar bilan, professor o'qituvchilar bilan kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda, masalaning yechimini izlash orqali tanqidiy-tahliliy fikrlash, boshqa insonlar bilan munosabatlarni o'rganish va masala yechishning usullarini boshqa talabalarga o'rgatishda imkon beradi.

Ijodiylikda nazariy va obrazli fikrlash, tasavvur aqlning cho'qurligi va kengligi, mustaqillik va tanqidiy fikrlash birga olib boriladi. Ijodiy qobiliyatlar amalda hosil bo'lgan mavjud bilimlar tizimidan chetga chiqishga, hodisalarни yangicha, odatdagidan tashqari nuqtai nazardan ko'rishga, tushuntirishga, ularni hal etish usullarini topshga imkon beradi.[1]

Molekulyar biologiyani o'rganishda masalalardan foydalanish tanqidiy fikrlashni talab qiladigan murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Masala va mashqlar talabalardan tanqidiy va ijodiy fikrlashni talab qiladi. Ushbu turdagи aqliy operatsiyalar talabalarning bilish faoliyati samaradorligini oshirish va molekulyar biologiya sohasidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirish uchun zarurdir. Muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish: Muammoni hal qilish molekulyar biologiyada muhim ko'nikma hisoblanadi va mashqlar va qiyinchiliklar bu ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Masala va mashqlarni bajarish ham talabalarning bilimini nazorat qilishga va yangi bilimlarni egallahsga imkon beradi. Bundan tashqari mavjud bilimlarni tanish va notanish vaziyatlarda qo'llash natijasida egallangan bilimlar ko'nikma va malakalarga aylantiriladi. Doimiy ravishda turli xil muammolarni hal qilish orqali talabalar o'zlarining ko'nikmalarini rivojlantiradilar va ularni turli vaziyatlarda qo'llashlari mumkin. Bu ularga muammoni hal qilishning turli yondashuvlarini tushunishga va unga eng mosini topishga yordam beradi. Natijada, talabalar muammolarni hal qilishda o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishga imkon yaratadi.[3]

Biologik masalalar yechish orqali talabalarda quyidagi malakalar shakllanadi.

Masalanining bosqichlari bo'yicha mustaqil fikrlashni o'rganish. Masala ustida ishslash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. Masala matni talabalar tomonidan bir-ikki marta o'qilganda, biologik obyektning tuzilishini, jarayonga oid tushunchalarni eslaydi.

Masalani dastlabki analiz qilish (ma'lumni noma'lumdan ajarata olish malakasi). Ma'lumni noma'lumdan, muhimni nomuhimdan ajratish, masalada berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog'lanishni ochish - bu eng muhim malakalardan biri. Bunday malakaga ega bo'lmay turib, masalalarni mustaqil yechishga o'rganib bo'lmaydi.

Masalani qisqa yozish malakasi. Masala matni ustida og'zaki ishlagandan keyin uning mazmunini matematik atamalar tiliga o'tkazish va qisqa yozuv shaklidagi matematik strukturasini belgilash kerak (rasmlar, chizmalar, sxemalar, jadvallar).

Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so'ngra yechish rejasini tuzish malakasi. Oldin sodda masalani yechishda amal tanlash, ya'ni ba'zi tanish masalalarga nisbatan amal tanlash ishini bajarish asosi o'rgatiladi. So'ngra murakkab masalalarni ishslash malakasi rivojlantirib boriladi.[3]

Yechimni bajarish, uni masalaning talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish malakasi. Sodda masalalardan boshlaymiz. Sodda masalani arifmetik usul bilan ham, algebraik usul bilan ham yechish mumkin. Bu o'rinda masalalarni arifmetik usul bilan yechish haqidagina so'z boradi, masalani algebraik usulda yechish keyinroq alohida qaraladi.

Talabalar malakasini shakllantirish ularning kreativ fikrlashlarini rivojlantirish imkonini beradi. Talabalar biologik obyektlarda sodir bo'ladigan modda va energiya almashinuvini o'rganishlari orqali energiyaning bordan yo'q bo'lmashagini, bir turdan ikkinchi turdag'i energiyaga aylanishi haqidagi tushunchalarga ega bo'lib borishadi.

Bundan tashqari, muammo va mashqlarni yechish talabalarning muloqot qobiliyatini oshirishi mumkin. Guruhlarda muammolar ustida ishslash orqali talabalar o'z fikrlarini samarali bayon etishga, boshqalarning fikrini tinglashga, umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilishga o'rganadilar. Shunday qilib, ular ta'lim muhitida foydali bo'lishi mumkin bo'lgan qimmatli shaxslararo ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

Ma'lumki, Molekulyar biologiya fani ma'lumotlar tarkibiga ko'ra matnli, raqamli, grafikli, jarayonlarning bosqichlaridan iborat. Ma'lumotlarni o'rganishda qo'llaniladigan usullarni talabaning o'zi individual xususiyatidan kelib chiqqan holda tanlaydi. Bilim olishda tavsiya etiladigan usul bu eslab qolishni osonlastirish uchun ko'proq mashq qilish taklif etiladi.

**Xulosa.** Umuman olganda, Molekulyar biologiya fanini o'qitishda masala yechish va mashqlardan foydalanish talabalarda mavzuning mohiyatini anglab yetishiga, ta'lim olish jarayoniga ijodiy yondashishga imkon yaratadi. Fanni o'rganish maqsadida professor o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarishda talaba oldin o'zi bilmagan usullarini ijodiy

yondashish asosida mashqlardan foydalanish nazariy ma'lumotlarni egallanishini ta'minlaydi, mavzuning mazmuni to'g'ri ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi, talabalarning bilim egallashlarida egallangan bilimni nazorat qilishga hamda egallagan bilimlarini tahlil qilishga imkon beradi.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn]: darslik/ Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 600 b.
2. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lif sohasi bakalavriat yo'naliishi uchun darslik/ M.X. Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S.Madiyarova, A.Qoldibekova, N.Nishonova, N.Sayidahmedov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lif vazirligi. — Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - 400 b.
3. M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy mакtab pedagogikasi. Darslik. -T., «Aloqachi», 2008, 304 bet.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 12/2 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-

уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).